

## GRAMMATIKA TIL O'QITISH – TIL O'RGANISH VA O'ZLASHTIRISHNING ASOSI

Paek Kum Nan

ToshDO'TAU magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10657531>

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada til o'rganish va o'zlashtirish jarayonida grammatikaning o'rni haqida ilmiy fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek, koreys tilini o'rganuvchi o'zbek tili egalari uchun grammatikaga oid o'xhash va farqli jihatlardan ayrimlari yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* grammatika, nazariy grammatika, Hangeul yozuvi, xitoy iyeroglifi, "koreys to'lqini" til o'rganish, til o'zlashtirish, qiyoslash.

### GRAMMAR LANGUAGE TEACHING IS THE BASIS OF LANGUAGE LEARNING AND ACQUISITION

*Abstract.* This article presents scientific opinions about the role of grammar in the process of language learning and acquisition. Also, some of the similar and different aspects of grammar for Uzbek speakers learning Korean are highlighted.

**Key words:** grammar, theoretical grammar, Hangeul writing, Chinese hieroglyphs, "Korean wave" language learning, language acquisition, comparison.

### ОБУЧЕНИЕ ГРАММАТИКЕ ЯЗЫКА ЯВЛЯЕТСЯ ОСНОВОЙ ИЗУЧЕНИЯ И УСВОЕНИЯ ЯЗЫКА.

*Аннотация.* В статье представлены научные мнения о роли грамматики в процессе изучения и усвоения языка. Также выделены некоторые схожие и разные аспекты грамматики для носителей узбекского языка, изучающих корейский язык.

*Ключевые слова:* грамматика, теоретическая грамматика, письмо хангыль, китайские иероглифы, изучение языка «корейской волны», овладение языком, сравнение.

Kishilik jamiyati yaralibdiki, unda muloqotga ehtiyoj mavjud. Ushbu ehtiyojni qondiruvchi birlamchi vosita tildir. Insonlar til yordamida gaplashadi, tinglaydi, yozadi, o'qiydi va yashaydi.

Til bilan dunyonи kuzatib, fikr yuritadi, orzu qiladi. Qaysidir ma'noda til fikrdir, til ham insondir. Xomskiyning til orqali insonni tushunishga harakat qilganining sababi shundaki, til insonning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Insonlar tomonidan ixtiro qilingan eng samarali muloqot vositasi bu tildir. Tilni boshqarish tamoyili esa grammatika hisoblanadi. Grammatikasiz til ishlatila olmaydi va til orqali insoniy muloqot imkonsiz bo'lib qoladi<sup>1</sup>. Har qanday tilni o'rganishda tilning asosiy hisoblangan uch jihatni hisobga olinadi: fonetika, leksika va grammatika.

Istalgan tilni grammatikasiz o'rganish mumkin emas: xoh u ona tili bo'lsin, xoh chet tili.

Albatta, grammatik ta'lif zaruriyatini faqat grammatikani bilish orqali tilda muloqotni osonlashtirish bilan bog'lab bo'lmaydi. Qadimgi Yunoniston davridan beri grammatikaga fikrlash qobiliyatini oshirish uchun zarur bo'lgan tadqiqot sifatida qaralgan. Bizning bilishimiz til bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, fikrlash qobiliyatini oshirish uchun grammatik ta'lif mutlaqo zarurdir.

<sup>1</sup>Til ta'lifida grammatik ta'lif shart emas degan dalil; umumiy grammatik ta'lif foydasiz nazariya 'muloqot nazariysi'dir.

Ku Bon-gvan, Seul davlat universitetining koreys tili ta'limi professori - Grammatik ta'lifning hozirgi holati va takomillashtirish yo'nalishi

Grammatika – bu so'zlar. Boshqacha qilib aytganda, bu tilni tashkil etuvchi qoida bo'lib, uni o'rghanuvchi "grammatika nazariyasi"dan farqlanadi. Tili ta'limida, xususan, grammatika bo'yicha o'qitiladigan ta'limot grammatika nazariyasi emas, balki grammatikadir.

Grammatik ta'limning maqsadi, ya'ni grammatika qobiliyatini grammatika nazariyasiga oid bilimlarni o'rganish emas, balki o'quvchilarni grammatik qobiliyat bilan qurollantirishdir. Grammatik qobiliyat ko'pincha D. Hymes, M. Canale va L. Bachman v.b.larning muhokamalarida muloqot qobiliyatining bir qismi sifatida ko'rib chiqilgan. Bular orasida, Baxman (1990) ning muloqot qobiliyatiga oid ta'rifini keltiraylik.

#### **Baxmanga ko'ra muloqot qilish qobiliyati -**

- A. Lisoniy ko'nigmalar: tizimli ko'nigmalar (grammatik qobiliyatlar, sintaktik qibiliyatlar), pragmatik qibiliyatlar (ichki nutq qibiliyatları, sotsiolingvistik qibiliyatlar)
- B. Strategik imkoniyatlar: baholash, rejalashtirish, amalga oshirish
- C. Psixo-fiziologik mexanizmlar: qabul qilish (eshitish funksiyasi/ko'rish funksiyasi), ifoda

Muloqot qobiliyati grammatik yoki lingvistik qibiliyatlarini tor ma'noda aniqlash va grammatik qibiliyatlardan farqlanadigan tildan foydalanish qobiliyatlarini ko'rsatish uchun taklif qilingan tushuncha edi. Darhaqiqat, yuqorda ko'rinish turibdiki, Baxman grammatik qobiliyatni shakl yoki sintaksis bilan bog'liqligi uchun juda tor doirada ko'rganini ko'rish mumkin. Biroq, bizning nuqtai nazarimizdan, grammatik qobiliyat nafaqat strukturaviy qobiliyatni, balki pragmatik qobiliyatni ham o'z ichiga oladi, shuning uchun u Baxmanning butun til qobiliyatini o'z ichiga olgan tushunchadir.

Grammatik qobiliyatning ta'rifi - bu miyaga xos bo'lgan grammatik bilimlarga asoslangan tilni tushunish, tildan to'g'ri va samarali foydalanish, uni haqiqiy til hayotida qo'llash qobiliyati. Grammatik qobiliyat har tomonlama ifodalangan bo'lsa-da, qulaylik uchun u fonologik qobiliyat, lug'at qobiliyati, gap qobiliyati, nutq qobiliyati kabi lisoniy birliklarga bo'linadi.

Oxir-oqibat shuni ko'rish mumkinki, grammatik qobiliyat - til tovushi, ma'nosi va tuzilishi jihatlarini o'z ichiga olgan holda, bu tilni bilish va tilning haqiqiy qo'llanilishida qo'llash qobiliyatidir. Grammatik ta'lim - bu tilning ishlash tamoyillarini tushunish va ishlatish uchun grammatik qobiliyatni tarbiyalashdir.

Xomskiy farazida bo'lgani kabi, odamlar til qobiliyati bilan tug'iladi, lekin odamlar tomonidan qo'llaniladigan ona tili tug'ilgandan keyin lingvistik ta'sir orqali tabiiy ravishda o'zlashtiriladi. Ona tilini o'rghanuvchilar bu grammatik ko'nikmalarini ta'lim orqali emas, balki tabiiy til hayoti orqali egallaydilar. Shunga qaramay, grammatik ta'lim zarur, chunki yuqorida aytib o'tilganidek, grammatik qobiliyat har qanday vaqtida tugallanmaydi va barcha o'quvchilar bir xil qobiliyatga ega emas. Lingvistik jamiyat a'zosi bir-biri bilan muammosiz muloqot qilish uchun o'quv yuritdagi ta'limi orqali grammatika ko'nikmalarini o'rgatish kerak.

Bu koreys tilining xususiyati bildirib, o'zbeklarga koreys tilini o'qitish uchun ikkala tilning o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashtirish muhim hisoblanadi. Shuning uchun bu maqolada koreys tili va o'zbek tilining o'xshash va farqli xususiyatlar orqali o'qitish haqida so'z boradi.

Bir oilaga mansub tillar bo'lgani uchun koreys tili va o'zbek tillari ko'p umumiy jihatlarga ega, shuning uchun o'zbek o'quvchilari koreys tilini o'rganishda unchalik qiyinchilikka uchramaydilar, biroq farqlar ham yetarlicha, shuning uchun ba'zi qiyinchiliklarga duch kelish

mumkin va ko'pincha xatolar yuzaga keladi. O'zbekistonda o'zbeklarga koreys tilini o'rgatayotganimda ko'p duch keladigan xatoga yo'l qo'yadigan qism bu bosh kelishik va talaffuz hisoblanadi. Koreyada talaffuzni alohida o'rganish muhim. Shuning uchun o'rganuvchilarga har darsda diktant o'tkaziladi. Nega deganda, yozish bilan talaffuzda muayyan farqlar mavjud.

Masalan, (shu yerda grammatikani tushuntirish mushkul,) bittagina misol keltirib aytsam, '눈이nun-i(눈(qor+0|(bosh kelishik) 와 요uwa-yo(yog'adi).(qor yog'adi)'). Unda '눈(nun)' bilan 0|(i)'ni qo'shilib o'qilganida [눈이nu-ni] deb talaffuz qilinadi. Shuning uchun lug'at(so'z)ni, gapni aniq tushunmasa, yozishda xato qilish mumkin. Qolaversa, lug'at(so'z)ning ildizi (o'zak) unli yoki undosh bilan tugashiga qarab qo'shimchalar ham boshqacha yozilishi mumkin. Shuning uchun ona tilisi o'zbek tili bo'lgan o'quvchilar koreys tilini chet tili sifatida o'rganayotganda o'zbek tili va koreys tilidagi shakllar va funksiyalarini taqqoslab, o'xhashlik va farqli jihatlarni topishlari muhim.

Qolaversa, koreys tili "xalqaro til" lar bilan bemalol tenglashib bormoqda. Dunyo bo'ylab koreys tilida 77 millionga yaqin kishi so'zlashadi va koreys tili dunyodagi tillar orasida ona tilida so'zlashuvchilar soni bo'yicha 14-o'rinda turadi. Koreys tilidan malaka imtihoniga (TOPIK) abituriyentlar sonining keskin ko'payishi "Koreys to'lqini" butun dunyo bo'ylab tarqala boshlagan davrga deyarli to'g'ri kelishini inobatga olsak, koreys to'lqini va koreys tili ta'limi o'rtasidagi bog'liqlik borligini taxmin qilish mumkin.

Koreyscha lug'atning taxminan 35 foizi ona tili (atoqli so'z) va taxminan 60 foizi xitoy (iyerogliblar) tilidan o'zlashganini ko'rish mumkin. Ko'pincha, bu Xitoy-Koreys so'zlari 1945-yilgacha "qarzga olingan" va hozir ular to'liq "koreyscha" deb qabul qilinadi. So'nggi yillarda koreys tili g'arb tillaridan, xususan, ingliz tilidan reklama, ko'ngilochar, sport, biznes boshqaruvi va muhandislik kabi sohalarda katta miqdorda so'zlarni o'zlashtirmoqda. (1945-yilgacha koreys tiliga bilvosita yapon tilidan g'arbiy so'zlar (chet tilidan olingan so'zlar) kirgan.<sup>2</sup>

Tarixiy obidalar va yodgorliklarga ko'ra o'zbek xalqi tarixda O'rxun-Enasoy, so'g'd, xorazm, uyg'ur kabi yozuv turlaridan foydalanganligi ma'lum. Jumladan, Ahmad Yughakiyning «Hibat-ul-haqoqiy», Xorazmiyning «Muhabbatnama» asarlari uyg'ur yozuvida bitilgan.

O'rta Osiyoda VIII — IX asrlarga kelib arab yozuvi tarqala boshlagan. XI asrda yaratilgan eng qadimgi yodgorliklar Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari, Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit - turk» asari ham arab yozuvida yozilgan. Qariyb 1200 yil qo'llanib kelingan arab yozuvida o'zbek xalqining Abu Rayhon Beruniy, Muhammad al-Xorazmiy, Ulug'bek, Forobiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Furqat, Cho'lpon, Fitrat kabi minglab allomalari o'z asarlarini yaratganlar.

Arab yozuvi 1929-yilgacha qo'llanib kelingan. 1929 — 1940-yillar ichida lotin yozuvi asosidagi o'zbek yozuviga o'tilgan. 1940-yildan boshlab esa rus grafikasi asosidagi o'zbek yozuvi joriy etilgan. Hozirda shu yozuvdan foydalanib kelinmoqda.

1993-yil 2- sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida «Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida» qonun qabul qilindi. Ushbu qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasida lotin yozuviga asoslangan quyidagi

<sup>2</sup> Min-Choo va Hye-Young Kwak - Using Korean a guide to contemporant usage - Cambridge

31 harf va 1 tutuq belgisi (apostrof)dan iborat o'zbek alifbosi joriy etildi.

Mana shu kabi yozuvning tarixiy taraqqiyoti va xalqning o'z tarixida qo'llagan yozuvlari haqida bilish ham til o'rganish jarayonida ahamiyatga ega. Quyida Koreys tili va yozuvining tarixiy o'ziga xosliklari va til o'rganish jarayonidagi ayrim jihatlarga to'xtalamiz.

### 1. Qirol 'Sejong' yaratgan Hangeul(한글) yozuvi haqida

#### Hangeulning xususiyatlarini ko'rib chiqaylik.

1. Hangeul (koreys tili alifbosi) - ishlab chiqarish maqsadi, ishlab chiqaruvchisi, ishlab chiqarish davri, ishlab chiqarish prinsipi, harflar nomi va harflar soni ko'rsatilgan yozma, hujjatlashgan alifbo.
2. U originaldir, chunki unga beqiyosiy harflari belgilari butun doyoda mavjud emas.
3. Amaliyat nuqtayi nazaridan, u bo'g'in birliklarida yozilgani uchun juda oson o'qiladi.
4. Salbiy tomoni esa uning talaffuz xususiyati.



Hun-min-jeong-um(훈민정음<sup>3)</sup>)



Koreya pulidagi  
Qirol 'Sejong'<sup>4</sup>

Joseonning 4-chi qiroli 'Sejong'(1397~1450) hukmronligining (1418) 25-yiliga kelib, ya`ni 1443-yili Jeong In-ji, Shin Suk-ju, Pak Peng-nyeon kabi 'Jiphyeonjeon' [ilm-bilimlar organuv, izlanuv, tadqiqot instituti] nomidagi laboratoriyada olimlari bilan birga 한글(Hangeul)ni yaratgan.

Hali 한글(Hangeul) yaratilmagan paytda Xitoy iyeroglfilaridan [imlo, yozuv bilan] foydalanilgan, ammo Xitoy harflardan[iyeroglfidan] foydalanilgan soni juda kam edi. Chunki o'sha davr mavjud bo'lган tabaqlanish sistemasi tufayli (Xonlik davr edi) zodagon(yuqori)

<sup>3</sup> ‘훈민정음(hun-min-jeong-um)’ so'zning asl ma'nosи xalgni o'rgatish to'g'ri tovush'

<sup>4</sup> Joseonning 4-chi qiroli 'Sejong'(1397~1450)

o'rin(unvon)lar faqat o'qish, ta'lif olish, savod chiqarish imkoniga ega edi. Past tabaqaga mansub insonlarga esa o'qishga imkon ham berilmagan.

Ushbu alifbo 1443-yili yaratilgan bo'lib, 1446-yili xalqqa **훈민정음(hun-min-jeong-um)** nomi ostida e`lon qilindi. Ushbu '훈민정음' so'zning asl ma`nosi 'xalqni o'rgatish uchun to'g'ri tovush' bo'lib, u **한글(Hangeul)**ning yaratilish jarayoni tasvirlangan kitobdir. Masalan, *tovush*, *o'qish haqida*, *qo'llanish*, *ma`nosi* va hokazo. Ayni paytda u alifboning ham nomi hisoblanadi.

Hozirda hangul tili o'zining o'ziga xosligi, ilmiyligi, tizimliligi va samaradorligi bilan dunyoning ko'plab mamlakatlari tilshunoslari tomonidan yuqori baholanadi. YuNESKO 1989 yilda "Qirol Sejong savodxonlik mukofotini" ta'sis etgan va uni har yili 8 sentyabrda (savodsizlikni yo'q qilish maqsadida) nishonlaydi. Kun) Mukofotlar savodsizlikni yo'q qilishda katta yutuqlarga erishgan odamlar yoki tashkilotlarga beriladi. Bundan tashqari, Koreyada 9-oktabr "Hangul kuni" sifatida belgilangan va har yili Hangul festivali milliy miqyosda nishonlanadi.<sup>5</sup>

Undosh '5'tadan va unli '3'tadan jami bo'lib 28ta harf mavjud.

Quyidagi ushbu unli 3tadan hozirgi koreys adabiy tilida foydalandigan asosiy 10 ta unli uchun asos bo'lgan.

•	Osmon (Osmon dumaloq)
—	Yer (Yer tekis, yassi)
	Odam borliq (Tik turgan odami)



$$\begin{array}{ccccc} \bullet & + & - & = & \perp \\ | & | & | & + & \bullet = \top \\ - & + & \bullet & = & \top \\ | & + & | & = & \perp \end{array}$$

*Osmon va yer, odamning ko'rinishiga qarab yaratilgan harflar jamlanib unlilar yaratildi.* Yana boshqa unlilar, undoshlar ularga shakllar qo'shish orqali yaratilgan. Hozirgi koreys adabiy tilida 3ta unli tovush yozuvda 21ta harf bilan ifodalanadi.

• [하늘] — [땅]   [사람]	3
*ㅏ ㅑ ㅓ ㅕ ㅗ ㅕ ㅜ ㅕ ㅡ ㅣ [•]	10
*[a] [ya] [o'] [yo'] [o] [yo] [u] [yu] [i(ы)] [i] [past a]	
ㅐ ㅒ ㅔ ㅖ ㅚ ㅕ ㅟ ㅕ ㅕ ㅕ ㅕ ㅕ	11

<sup>5</sup> Seul Davlat Universiteti qoshdag'i til ta'lif markazi Student's Book 1A - Choi, eun-gyu va b.

Oson koreys tili boshlang'ich 1,(KOICA). Kitob nashriyot, Saeng-gak-nanum

Koreya universiteti Koreys tili va madaniyati ta'lif markazi (2008-9), 『Qiziqarli koreys 1-2』, Kyobo kitob markazi


[æ] [yæ] [e] [ye] [ua] [ue] [ui] [uo'] [ue] [ue] [ii(ы)]	
--	--

(\*yozish 'ㅏ', talaffuz '[a]')

한글 dastlabki yaratilayotgan paytda, bu qo'shilgan harflar unli “ㅏ”, undosh “△, ㅗ, ㅓ” esa hozirda foydalanilmaydi.

Unli	Nomi	Fonetik bahosi	Yozuv
ㅏ	아	a	ㅏ
ㅑ	야	ya	ㅏ ㅑ
ㅓ	어	ㅓ'	-   ㅓ
ㅕ	여	yo'	- =   ㅕ
ㅗ	오	ㅗ	ㅗ
ㅛ	요	yo	ㅛ
ㅜ	우	ㅜ	ㅡ ㅜ
ㅠ	유	yu	ㅡ ㅜ ㅠ
ㅡ	으	i(ы)	ㅡ
	oi	i	

Tilning shakli(ㄱ(g), ㄴ(n)), og'iz shakli(ㅁ(m)), tish shakli(ㅅ(s)), tomoq shakli(ㅇ(ng))ni ko'rib dastlabki, ushbu 5ta oddiy undoshlar yaratilib, ularga yana shakllar qo'shib, qolgan undoshlar yaratilgan.



ㄱ(g)	ㄴ(n)	ㅁ(m)	ㅅ(s)	ㅇ(ng)	5
ㄱ, ㄱ, ㄱ	ㄴ, ㄴ, ㄴ, ㅌ, ㅌ, ㅌ	ㅁ, ㅁ, ㅁ, ㅌ, ㅌ, ㅌ	ㅅ, ㅅ, ㅅ, ㅈ, ㅈ, ㅈ	ㅇ, ㅇ, ㅇ, ㅊ, ㅊ, ㅊ	1 9

\* Undosh “△, ㅗ, ㅓ” hozirda foydalanilmaydi.

Quyidagi jadvalda 14ta undoshning nomlari va tovushlari berilgan.

Undosh	Nomi	Fonetik bahosi	Yozuv
ㄱ	기역(giyo'g)	[ k/g ]	ㄱ
ㄴ	니은(niin)	[ n ]	ㄴ
ㄷ	디귿(digid)	[ t/d ]	- ㄷ
ㄹ	리을(riil)	[ l/l ]	ㄱ ㅋ ㄹ
ㅁ	미음(miim)	[ m ]	ㅣ ㅁ ㅁ
ㅂ	비읍(biib)	[ p/b ]	ㅣ ॥ ㅂ ㅂ
ㅅ	시옷(siod)	[ s/ç ]	ノ ㅅ
ㅇ	이응(iing)	[ ŋ ]	ㅇ
ㅈ	지읒(ziid)	[ tç ]	ㄐ ㅈ
ㅊ	치읓(chiid)	[ tçʰ ]	- ㅊ ㅊ
ㅋ	키읔(kiig)	[ kʰ ]	ㄱ ㅋ
ㅌ	티읕(tiid)	[ tʰ ]	- = ㅌ
ㅍ	피읖(piib)	[ pʰ ]	- ㅌ ㅍ ㅍ
ㅎ	히읗(hiid)	[ h ]	- = ㅎ

Quyidagi jadvalda bir xil asosiy undoshlarning ikkitasini birlashtirish yo'li bilan tuzilgan beshta qo'shaloq undoshlarning nomlari va tuvushlari berilgan.

Ikkitalik Undosh	Nomi	Fonetik bahosi	Yozuv
ㄲ*	쌍기역 <sup>6</sup>	[ k* ]	ㄱ ㄱ
ㄸ	쌍디귿	[ t* ]	ㄷ ㄷ- ㄸ
ㅃ	쌍비읍	[ p* ]	ㅂ ㅂ- ㅃ
ㅆ	쌍시옷	[ s* ]	ㅅ ㅅ- ㅆ
ㅉ	쌍지읒	[ tç* ]	ㅈ ㅈ- ㅉ

**Hangeul bo'g'inlari tarkibi.** Bir havo zarbi bilan aytilgan tovush yoki tovushlar kompleksi **bo'g'in** deyiladi. Bo'g'inlar ikki xil bo'ladi: Ochiq bo'g'in va yopiq bo'g'in. Unli tovush

<sup>6</sup> 쌍(ssang) ma'nosi ikkitalik, juftlik ekanini ko'rsatadi.

\* 쌍기역(ssang-giyeok), 쌍디귿(ssang-digid), 쌍비읍(ssang-biib), 쌍시옷(ssang-siod), 쌍지읒(ssang-jiid)

bilan bitgan bo'g'in *ochiq* sanaladi: 문-제[mun-je], 어-머-ㄴ[o'-mo'-ni], 아-벼-자[a-bo'-ji], 아-օ[a-i] kabi.


Undosh tovush bilan bitgan bo'g'in *yopiq* sanaladi: 학-생[hak-saeng], 시-골[si-go'l] kabi.

*Hangeul* boshida, o'rtada, oxirida keladigan bo'g'inxilarning *jamlanib* yoziladigan alifbosidir. Uning 6ta usuli bor.

Pastdagi *unli* bilan qo'shib, o'rtaga yozilib, *undosh* boshiga va oxiriga yoziladi.

#### **Unli fonemalar klassifikatsiyasi jadvali**

lab □	Tilining vertikal harakatiga ko'ra	Tilning gorizontal harakati va lablarning ishtirokiga ko'ra			tomoq □
		old qator, lablanmagan	o'rta qator lablanmagan	orqa qator, lablangan	
	yuqori (tor) unlilar	[i]	₩ [wi]	- [ы]	-
	o'rta (o'rta keng) unlilar	₩ [e]	₩ [ue]	ㅓ [o']	ㅓ [o]
			ㅐ [æ]		-
	quyi (keng) unlilar		ㅏ [a]		



7

Quyidagi undosh tartiblariga qarab taqqoslab ko'ring.

#### **Koreys tili undosh tartibi**

<sup>7</sup> Min-Choo va Hye-Young Kwak - Using Korean a guide to contemporant usage - Cambridge.

tovush chiqaradigan joylar		Lab tovush	tanglay tovush	qattiq tanglay tovush	yumshoq tanglay tovush	o'rqa tomoq
tovush chiqaradi-gan usuli	tovush balandligi					
portlovchi/qorishiq tovush	oddiy tovushlar	✉	✉		✉	
	qorishiq tovushlar	✉	✉		✉	
	qattiq/ko'sh tovush	✉✉	✉✉		✉✉	
affrikat	oddiy tovushlar			✖		
	qorishiq tovushlar			✖		
	qattiq/ko'sh tovush			✖✖		
ishqalanish	oddiy tovushlar		ㅅ			±
	qattiq/ko'sh tovush		ㅆ			
burun tovush		ㅁ	ㄴ		ㅇ	
Sirg'aluvchi assimilyatsiya			ㄹ			

Hozirgi koreys tilidagi ta'lif o'tmishdagi grammatik o'qitish usulidan ajralib, kommunikativ o'qitish usuliga asoslanadi. Kommunikativ o'qitish usuli o'quvchi-larning muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga katta hissa qo'shdi, lekin u to'g'ri gaplardan foydalanishni rag'batlantirishda ko'plab kamchiliklarni ochib beradi. Koreys tili - grammatik shakllar rivojlangan til bo'lib, ular ma'nodagi nozik farqlarni ochib beradi, masalan, tugalovchi qo'shimchalar, qo'shimchalar va yordamchi fe'llar. Koreyscha qo'shimcha '-O|/ກ|(ga), - 은(in/ын)/는(nin/nыn)<sup>8</sup> ham ma'nodagi bu nozik farqlar tufayli uni to'g'ri ishlatishda ko'p qiyinchiliklar tug'diradi.

Shuning uchun, agar '-O|/ກ| va '-은/는' o'rtasidagi farq o'quvchilarga to'g'ri ko'rsatilmasa, o'quvchilar ikki qo'shimcha orasidagi farqni tushunmasdan doimiy ravishda xato qilishlari mumkin. Oxir oqibat, bu muammolarni hal qilish uchun, birinchi navbatda, '-O|/ກ| va '-은/는'ning ma'nosi va funksiyasi o'rtasidagi farqni aniq ochib beradigan grammatik ta'lifni kuchaytirish

<sup>8</sup> Ы: keladigan harflarida o'zbek tili 'i' bilan birga ishlashish mumkin. Talaffuz esa 'ы' qilinadi.

kerak, bu esa pirovardida odamlar o'rtasidagi muloqotning tushunarli, samarali bo'lishiga hissa qo'shadi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va koreys tiliga xos umumiy va xususiy jihatlar hisobga olingan holda tashkil etilgan ta'lif samaraliroq natijalarga olib keladi. Xususan, maqolada ko'rsatilgan xususiyatlardan, grammatikaga oid ma'lumotlar til o'qitish jarayonida foydalanish uchun yordamchi va shuningdek, muhim deb hisoblaymiz.

## REFERENCES

1. Ku Bon-gvan, Seul davlat universitetining koreys tili ta'limi professori - Grammatik ta'limning hozirgi holati va takomillashtirish yo'nalishi
2. Min-Choo va Hye-Young Kwak - Using Korean a guide to contemporant usage - Cambridge.
3. Seul Davlat Universiteti qoshdagagi til ta'lim markazi Student's Book 1A - Choi eun-gyu v.b
4. Oson koreys tili boshlang'ich 1,(KOICA). Kitob nashriyot, Saeng-gak-nanum
5. Koreya universiteti Koreys tili va madaniyati ta'lim markazi (2008-9), 『Qiziqarli koreys 1-2』 , Kyobo kitob markazi